Adabiyot darslarida loyiha asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik va metodik asoslari (5-sinf misolida) .....	556
<i>Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi</i>	
4K modelini rivojlantirishda "Teskari sinf" (Flipped Classroom) texnologiyasining o'rni va ahamiyati .....	562
<i>Doniyorova Dildora Nuritdin qizi</i>	
4S festivali orqali Prezident maktablari pedagog va hodimlarida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish .....	566
<i>Ibragimov Shuhratbek</i>	
Ergashgan qo'shma gapli maqollarning komponental xususiyati.....	571
<i>Xoliqova Nasiba Anvar qizi</i>	
Как через счёт и движение формировать здоровье с точки зрения педагогики восточного возрождения .....	574
<i>Алиходжаева Р., Калауова М.</i>	
Kurashchilarda musobaqa davrida stressga chidamlilikni shakllantirish .....	578
<i>Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich, Komilov Aziz Xoshimovich</i>	
Значение педагогической культуры в решении проблем подготовки преподавателей русского языка в высшем образовании .....	581
<i>Худайбердиева Дильфуза Мухтаровна</i>	



# EFFERENT AFAZIYA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BEMORLAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK REABILITATSIYA ISHLAR TIZIMI

Turdaliyeva Shahlo Husnitdinovna  
Nizomiy nomidagi O'zMPU "Logopediya" kafedrası v.b. dots. (PhD)

**Annotatsiya:** Efferent afaziya nutq nuqsoniga ega bemorlarda o'tkir davrda nutqni tiklash jarayonida olib boriladigan logopedik reabilitatsiya ishlarining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Nutq buzilishining klinik va psixologik jihatlari, bemorlarda kuzatiladigan perseveratsiya, agrammatizm hamda bog'lanishli nutqdagi qiyinchiliklar tahlil qilingan. Shuningdek, logopedik korreksiya jarayonida qo'llaniladigan bosqichma-bosqich metod va usullar, kompleks yondashuvning samaradorligi hamda mutaxassislar hamkorligining ahamiyati ochib berilgan. Nutq funksiyalarini tiklashda individual yondashuv, motivatsion muhit yaratish va kommunikativ faoliyatni faollashtirishning muhim jihatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** efferent afaziya, afaziya, logopedik reabilitatsiya, nutqni tiklash, afazik bemorlar, bosh miya shikastlanishi, insult, ekspressiv nutq, perseveratsiya, agrammatizm, oliy ruhiy funksiyalar.

**Abstract:** The specific features of speech therapy rehabilitation aimed at restoring speech in patients with efferent aphasia during the acute stage are scientifically examined. Clinical and psychological aspects of speech impairment, including perseveration, agrammatism, and difficulties in coherent speech production, are analyzed. The study also highlights step-by-step methods and techniques of speech therapy correction, the effectiveness of a comprehensive approach, and the importance of interdisciplinary cooperation among specialists. Particular attention is paid to the role of individualized intervention, motivational support, and the activation of communicative activity in the restoration of speech functions.

**Key words:** efferent aphasia, aphasia, speech therapy rehabilitation, speech restoration, aphasic patients, traumatic brain injury, stroke, expressive speech, perseveration, agrammatism, higher mental functions.

**Аннотация:** Научно освещены особенности логопедической реабилитационной работы по восстановлению речи у пациентов с эфферентной афазией в остром периоде заболевания. Проанализированы клинические и психологические аспекты речевых нарушений, а также проявления perseverации, аграмматизма и трудностей связной речи у пациентов. Кроме того, раскрыты этапные методы и приёмы логопедической коррекции, эффективность комплексного подхода и значение междисциплинарного взаимодействия специалистов. Обоснована важность индивидуального подхода, создания мотивационной среды и активизации коммуникативной деятельности в процессе восстановления речевых функций.

**Ключевые слова:** эфферентная афазия, афазия, логопедическая реабилитация, восстановление речи, афазические больные, черепно-мозговая травма, инсульт, экспрессивная речь, perseverация, аграмматизм, высшие психические функции.

## KIRISH

Bugungi kunda bosh miya qon aylanishining buzilishi, insult, travmatik miya shikastlanishlari hamda boshqa nevrologik kasalliklar natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishlari tibbiyot va logopediya sohasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, efferent afaziya nutq faoliyatining murakkab buzilish shakllaridan biri bo'lib, bemorning kommunikativ faoliyati, ijtimoiy moslashuvi hamda psixoemotsional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holatda bemorda nutqning talaffuz tomoni, so'zlarni ketma-ket tashkil etish, bog'lanishli nutqni hosil qilish hamda grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash jarayonlari buziladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Afaziya muammosini ilmiy jihatdan o'rganish nevrologiya, neyropsixologiya va logopediya fanlari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda P. Broka, K. Vernike, L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, L.S. Svetkova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra,

afaziya bosh miya po'stlog'ining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keluvchi tizimli nutq buzilishi bo'lib, u nafaqat ekspressiv va impressiv nutqni, balki o'qish, yozish hamda boshqa oliy ruhiy funksiyalarni ham izdan chiqaradi.

Efferent afaziyada logopedik reabilitatsiya jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi korreksion-pedagogik faoliyatni talab etadi. Nutqni qayta tiklashda kompleks yondashuv asosida logoped, nevrolog, psixolog, fizioterapevt hamda boshqa mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'tkir davrda olib boriladigan logopedik mashg'ulotlar bemorda nutq funksiyalarini tiklash, perseveratsiya va agrammatizmlarni kamaytirish, bog'lanishli nutqni shakllantirish hamda kommunikativ faoliyatni faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Efferent afaziyaga ega bemorlarda o'tkir davrda nutqni tiklash bo'yicha olib boriladigan logopedik reabilitatsiya ishlarining bosqichlari, metod va usullari hamda ularning amaliy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida efferent afaziya nutq nuqsoniga ega bemorlar bilan olib boriladigan logopedik reabilitatsiya ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat, diagnostik-logopedik tekshiruv hamda pedagogik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida bosh miya shikastlanishi va insult natijasida efferent afaziya kuzatilgan bemorlarning nutq holati o'rganildi. Nutq faoliyatining ekspressiv va impressiv jihatlarini, artikulyatsion holati, bog'lanishli nutq, perseveratsiya va agrammatizm darajalari maxsus logopedik topshiriqlar asosida baholandi. Ma'lumotlarni yig'ishda individual mashg'ulotlar, og'zaki nutq namunalari tahlil qilish, savol-javob, syujetli rasmlar bilan ishlash hamda yozma topshiriqlardan foydalanildi.

Olingan natijalar qiyosiy va tavsifiy tahlil asosida qayta ishlanib, logopedik reabilitatsiyaning bosqichma-bosqich tashkil etilishi bemorlarda nutq funksiyalarining tiklanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida korreksion mashg'ulotlarning muntazamligi, individual yondashuv va kompleks metodlarning samaradorligiga alohida e'tibor qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kattalar bilan logopedik ish, asosan, bosh miyaning turli mahalliy shikastlanishlari natijasida nutq faoliyati buzilgan holatlarda zarur bo'ladi. Bunday shikastlanishlarga bosh miya jarohatlari, insult, bosh miya o'smalari va shu kabilarning oqibatlarini kiradi. Bu buzilishlar odatda afaziya shaklida namoyon bo'lib, ko'pincha oliy ruhiy faoliyatning boshqa buzilishlari bilan birga kechadi.

Afaziya insonning ijtimoiy mavqei o'zgarishiga olib keladi va bu uning butun hayot tarzini o'zgartirib yuborishi mumkin. Bemor avvalgi mehnat faoliyatiga qayta olmaydi, ba'zan harakatlari cheklanadi, ijtimoiy aloqalari o'zgaradi hamda ruhiy xotirjamligi yo'qoladi. Natijada afaziyaga chalingan shaxslarda bu holatga nisbatan tushkunlik, befarqlik kabi reaksiyalar yuzaga keladi, hissiy holati keskin pasayadi, qo'rquv va vahima xurujlari paydo bo'ladi. Afaziya muammosini o'rganish hozirgi kunda katta ahamiyatga ega. Bu efferent afaziyaning keng tarqalganligi, ushbu kasallikning klinik ko'rinishlarining xilma-xilligi bilan bog'liq. Afaziya haqidagi ta'limotni P. Broka, K. Vernike, L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, T.G. Vizel, L.S. Svetkova va boshqalar o'rganishda katta hissa qo'shganlar.

Afaziya – bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining organik shikastlanishlarida yuzaga keladigan allaqachon shakllangan nutqning tizimli orttirilgan buzilishi; nutq buzilishi (ekspressiv nutq, impressiv nutq, o'qish va yozish); nutqni tashkil etishning turli darajalarini qamrab oladi (fonetika, leksika, grammatika, semantika); uning boshqa ruhiy jarayonlar bilan aloqasiga ta'sir qiladi va insonning butun ruhiy jarayonining buzilishiga olib keladi, birinchi navbatda, nutqning kommunikativ funksiyasi buzilishiga sabab bo'ladi.

Logopedik reabilitatsiya jarayonida kompleks yordam ko'rsatish, ya'ni ushbu jarayonga nafaqat nevrologlar, balki kinezoterapevtlar, fizioterapevtlar, ergoterapevtlar, logopedlar, psixologlar, terapevtlar, psixiatrlar, ijtimoiy xodimlar, massajchilar hamda boshqa mutaxassislarni jalb qilish juda muhimdir.

Buzilgan nutq faoliyatini tiklashning asosiy usuli logoped bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar hisoblanadi. Nutqni tiklash 2–3-yilgacha davom etishi mumkin. Og'zaki nutq ustida ishlaganda o'qish, yozish va boshqa oliy ruhiy funksiyalarni tiklashga qaratilgan topshiriq hamda mashqlarni ham kiritish zarur. Agar asosiy (yetakchi) qo'lning harakat faoliyati buzilgan bo'lsa, logoped bemorga ishlaydigan qo'li bilan yozishni o'rgatadi.

Logopedik reabilitatsiyaning maqsadi – og'zaki nutq, yozish va o'qishni tiklash, ya'ni muloqotning og'zaki shakllarini qayta shakllantirishdan iborat. U muayyan vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi:

- nutqning umumiy tormozsizlanishi;



- perseveratsiya, exolaliyani yengish;
- bemorning umumiy ruhiy va og'zaki faolligini tiklash.

Dastlabki o'rganish bosqichi. Logopedik rehabilitatsiyaning ushbu bosqichidagi vazifa bemorda mustahkamlangan, avtomatlashtirilgan nutq qatorlaridan so'zlarni yoki bir qator so'zlarni faol ajratish va talaffuz qilish qobiliyatini tiklashdan iborat. Buning uchun bemor nutqini ixtiyoriy darajaga o'tkazishga, ya'ni o'z nutqini anglashga va ixtiyoriy gapirishga yordam beradigan korreksion logopedik ish usullari zarur.

Bemorlar bilan olib boriladigan logopedik korreksion ish tizimi nutq apparatini umumiy faollashtirishdan boshlanadi. Logopedik korreksion ishning ushbu bosqichidayoq nutq qatoridan alohida so'zni faol ajratib olish vazifasi maxsus qo'yiladi. Bu ko'nikmani muayyan usullar tizimini bajarish jarayonida mashq qildirish mumkin. Ish ma'lum nutqiy qatorlarni qo'shma-aks ettirish usulida passiv takrorlashdan boshlanadi. Perseveratsiyalar qatoridagi har bir so'zni aniq va cho'zib takrorlash orqali bartaraf etiladi, shu bilan takrorlash vaqtga nisbatan orqaga suriladi. Ushbu mashqlar bemorda sekinlashgan, cho'zilgan va aniq nutq orqali perseveratsiyani bartaraf etish usulini shakllantiradi.

Bemordan passiv takrorlashni emas, balki ayrim nutqiy faollikni talab qiladigan operatsiyalarni mashq qilishga o'tish mumkin. Buning uchun frazani butungacha to'ldirishning amaliyotda ma'lum bo'lgan usuli qo'llaniladi. Bemordan og'zaki iborani mustaqil ravishda bitta yetishmayotgan so'z bilan tugatish talab qilinadi. Bu usul ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni faol talaffuz qilishni tiklashga tayyorlash uchun zarur hisoblanadi. Shuningdek, she'rlar, maqollar va qo'shiqlardan olingan gaplardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu bosqichda oddiy va avtomatlashtirilgan nutqni tiklash, agar logopedik mashg'ulotlar to'g'ri tuzilgan bo'lsa, ularning uslubiy tomoni va o'tkazilish shakliga ko'ra tez kechadi. Mashg'ulotlar qiziqarli, "jonli" xarakterda bo'lishi, zerikarli tus olmasligi kerak. Bu bosqichda bemor bir qator so'zlarni, she'rlardan ayrim satrlarni faol va ongli ravishda talaffuz qilishni o'rganadi, qo'shiqdan bir bandni ayta oladi, biroq u hali o'sha nutq qatoridan alohida so'zni yoki alohida gapni faol ajratib ayta olmaydi.

*I bosqich* – logopedik mashg'ulotning ushbu bosqichidagi vazifa ayrim so'zlarni faol talaffuz qilishni tiklashdan iborat bo'ladi.

Ish uchun material dastlab oddiy muloqotdan iborat bo'ladi. Agar tormozlanishni bo'shatish bosqichida avtomatlashtirilgan nutq komplekslari butun so'zlar va iboralar qatorini talaffuz qilishni tiklashga xizmat qilgan bo'lsa, ushbu bosqichda ular qator tarkibidagi alohida so'zlarni ajratish va faol talaffuz qilish maqsadida qo'llaniladi. Shu maqsadda bemorga dastlab nutq qatoridagi so'zlarni faol talaffuz qilishning kengaytirilgan usuli o'rgatiladi. Bu bemorni asta-sekin so'zlarni passiv takrorlashdan faol talaffuz qilishga o'tkazishga imkon beradi. Ish quyidagi topshiriqlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

**Topshiriq № 1.** Bemorning oldiga yirik ustun qilib sonlar (hafta kunlari, oylar nomi va boshqalar) yozilgan kartochka qo'yiladi. Logoped 10 gacha sanaydi (yoki hafta kunlari, oylar nomi va boshqalarni aytadi), bemor uni pedagogdan keyin baland ovozda takrorlaydi. Shundan so'ng bemor pedagogning ko'rsatmasiga binoan o'sha sonli qatorni, butun qatorni baland ovozda aytayotgan pedagog ortidan diskret tarzda (baland ovozda – shivirlab, dona-dona) takrorlashi kerak.

**Ko'rsatma:** "Men bilan birga sonlarning nomlarini (hafta kunlari, yil fasllari, oylarning nomlari va boshqalarni) o'qing".

**Topshiriq № 2:** Bemorga pedagogning lablariga qarab, yaxshi tanish qo'shiqning birinchi bandini uch-to'rt marta "kuylash"ga yordam berish.

Ushbu ko'nikma mashq qilingandan so'ng nutq harakatining yanada faol darajasiga o'tish mumkin: shivirlab gapirish pedagog bilan bog'liq holda amalga oshiriladi va baland ovozda nutq qatorini mustaqil ravishda davom ettirish shakllantiriladi. Nutq qatorining bemor tomonidan baland ovozda takrorlanadigan qismi asta-sekin minimallashtiriladi: butun qator bemor tomonidan shivirlab takrorlanadi va faqat bitta so'z baland ovozda talaffuz qilinadi.

Qatoridagi ayrim so'zlarni talaffuz qilishning ushbu usulini o'zlashtirish ustida uzoq vaqt ishlagandan so'ng bemorga quyidagi operatsiyalar dasturi beriladi. Mazkur dastur endi takrorlashni emas, balki butun berilgan nutq qatorini shivirlab mustaqil talaffuz qilishni nazarda tutadi. Bemor darhol faqat pedagog ko'rsatgan kunni (yoki hafta kunini, yoki oyni) baland ovozda aytishi kerak. Sonlar tarqoq holda emas, balki qator ketma-ketligiga qat'iy rioya qilingan holda ko'rsatiladi. Ushbu operatsiyalar bevosita bemorni nutq qatoridagi so'zlarni faol talaffuz qilishning qisqartirilgan usuliga olib keladi.

Tavsif etilgan usullar vaqtincha yo'qolgan nutqni qayta tiklashga va faol so'z boyligini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qitishning ushbu bosqichida rasmlar, imo-ishoralar va bemorning faol javoblari yordamida eshitish orqali nutqni faollashtirish metodikasi qo'llaniladi.

*II bosqich* – logopedik mashg'ulotning ushbu bosqichidagi vazifa nutqning talaffuz tomonidagi buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha maxsus ish olib borishdan iborat bo'lib, u bo'g'in doirasida artikulyatsiya almashinuvlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi: artikulyatsiya namunasi bo'yicha qarama-qarshi unlilar ("a" – "u" va boshqalar).

So'z doirasida artikulyatsion ko'chishlarni ishlab chiqishda bo'g'inlarni oddiy, keyinchalik esa murakkab tovush tuzilishiga ega bo'lgan so'zlarga birlashtirish amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagi topshiriqlardan foydalaniladi:

- turli unlilar qatnashgan bo'g'inlarni sxemalarga tayangan holda o'qish;
- chizmaga tayangan holda bo'g'inlarni so'zlarga birlashtirish;
- bo'g'inlarning murakkab bo'g'inli so'zlarga qo'shib ketishini sxemalarga asoslangan holda bajarish;
- sxemalarga tayangan holda so'zlar tuzish.

Ushbu bosqichning navbatdagi vazifasi ekspressiv agrammatizmni bartaraf etishdir. Shu maqsadda harakatni ifodalovchi so'zlarni aktuallashtirish ustida ish olib borish lozim.

Fe'l-so'zning ma'no va eshitish faollashtirish usuli ongli ixtiyoriy nutq darajasini hamda umumlashtirishning aqliy operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Bemorning oldiga bir xil harakatni tasvirlovchi bir qator rasmlar qo'yiladi. Rasmlar syujeti pedagog tomonidan aniq, qisqa iboralar bilan ifodalanadi, bunda albatta mashq qilinyotgan so'z ham qo'shiladi. Bemor avval ushbu so'zni takrorlashi, so'ngra mustaqil ravishda ushbu so'z-tushunchaga mos keladigan, ushbu so'zning turli ma'nolarini aks ettiruvchi predmetli va syujetli rasmlarni tanlashi kerak. Bemorga quyidagi vazifalar taklif etiladi:

- syujetli rasmlarga asoslanib, mos keladigan so'z-harakatni tanlash;
- tushirib qoldirilgan so'zni qo'yish;
- maqol va matallarni tugatish.

Xuddi shu maqsadda she'r o'qish, qo'shiq kuylash hamda maqollar bilan bog'liq usullar qo'llaniladi, ularda mashq qilinyotgan fe'l-so'zlar mavjud bo'ladi. She'r va qo'shiqlardan ajratib olingan fe'l-so'zlarni faol talaffuz qilish ustida ishlash yuqorida bayon etilgan usul bo'yicha olib boriladi.

Ikkinchi bosqichda o'rganiladigan so'zlarni xilma-xil mashqlarda – so'zning tovush-harf tarkibini ongli tahlil qilishga, kema alifbodagi harflardan so'z tuzishga, so'zlarni yozish va o'qishga hamda boshqa faoliyatlarga mustahkamlab borish kerak. Barcha mashqlar so'zlarni faol talaffuz qilish bilan yakunlanishi zarur.

Agrammatizmlarning oldini olish ishlari alohida o'rin tutadi. Ushbu ishning vazifasi bemorda so'z qo'shimchalari va ma'lum bir vaziyat o'rtasidagi bog'liqlikni tiklashdan iborat. Buning uchun nutq ko'rsatmasi bo'yicha bemorning predmet bilan faol harakatlari usuli qo'llaniladi, bunda predmetni ifodalovchi bir xil so'z turli grammatik vositalarda ishlatiladi. Bemorning diqqati aynan shu so'zning turli qo'shimchalariga qaratiladi. Ushbu ko'nikmalar rasmlar seriyasi bilan bajariladigan mashqlarda mustahkamlanadi, ularda predmet rasmning boshqa elementlariga nisbatan turli munosabatlarda tasvirlanadi.

Shuningdek, bemor mustaqil ravishda syujetli rasmlarni tegishli yakunlar bilan turli guruhlarga ajratadi. So'zlarni bemorning ma'lum harakatlari bilan birlashtirishga katta e'tibor beriladi, bu esa so'zlarning bog'liqligini mustahkamlashga yordam beradi.

*III bosqich* – logopedik mashg'ulotning ushbu bosqichidagi vazifa bog'lanishli iborali nutqni tiklashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi usullar tizimi qo'llaniladi:

- syujetli rasmlar asosida iboralar tuzish. Syujetli rasmlar va sxemalar asta-sekin murakkablashib boradi. Murakkablashuv gapning miqdoriy tarkibi hamda uning leksik tarkibi bo'yicha sodir bo'ladi, natijada nutqning grammatik tuzilishi va mazmuniy yaxlitligi buzilishining oldi olinadi;
- syujetli rasmlar seriyasi bo'yicha gaplar tuzish. Bu usul aynan bog'lanishli fikrni qayta tiklashni nazarda tutadi;
- gaplarni so'z turkumlari bo'yicha tahlil qilish. Ushbu usul bemordan gapning har bir bo'lagiga kerakli savolni qo'ya bilishni talab qiladi.

Mazkur ko'nikmaning tiklanishi gapning impressiv-ekspressiv strukturasi tiklashga yordam beradi. Bunday ishlardan so'ng sof bog'lanishli so'zlashuv nutqini tiklashga o'tiladi. Shu maqsadda quyidagi usullar tizimi qo'llaniladi.

Yozish va o'qish usuli, ya'ni o'qish va yozish bu holda tiklanishi kerak bo'lgan obyekt sifatida emas, balki bog'langan iborali nutqni tiklash va mustahkamlash usuli sifatida namoyon bo'ladi: tushirib qoldirilgan so'zlar bilan iboralar va matnlarni yozish, keyinchalik berilgan syujetli rasm bo'yicha iboralar tuzish, yozma shaklda



berilgan so'zlardan iboralar tuzish, pedagog tomonidan taklif qilingan 3–4 ta iboradan yozib olingan iboralarga mos keladigan syujetli rasmlarni tanlash va boshqalar.

Dialog usuli dastlabki bosqichdan boshlab butun ta'lim sikli davomida qo'llaniladi. Bu usul boshqa usullar tizimida alohida iboralarni emas, balki bog'lanishli nutqni talaffuz qilishni tiklash vazifasini hal qiladi. Bemorga suhbatdoshining so'zlashuvi bilan mazmunan bog'liq bo'lgan iboralarni talaffuz qilish o'rgatiladi.

Rolli nutq o'yinlarini qo'llash go'yo dialogni davom ettiradi, biroq bemor nutqida mustaqillik va faollik elementlarini oshiradi. Dastlab suhbatning vaziyatlari va rollari syujetli rasm bilan belgilanadi. Pedagog rollarni taqsimlaydi va rasm syujeti rollarga bo'lib aytiladi.

Ushbu usullar tizimi bog'lanishli nutqdan foydalanish usulini tiklashga qaratilgan: kontekstni bilish, sherik replikalaridan leksik va grammatik qurilishlarda foydalanish, sodda yig'iq gaplardan foydalanish. Ish uchun material sifatida dastlab grammatik qurilishi sodda bo'lgan gaplar xizmat qilishi kerak. Verbal va rasmi material asta-sekin murakkablashib borishi zarur. Butun material bemorning emotsionalligi va individualligi talablariga javob berishi, uning kasbi va ma'lumot darajasini hisobga olishi kerak.

Shuningdek, logopedik reabilitatsiyada bemorning psixoemotsional holatini hisobga olish muhim omil sanaladi. Afaziyaga chalingan bemorlarda ko'pincha tushkunlik, ijtimoiy chekinish, qo'rquv va ruhiy zo'riqish holatlari kuzatiladi. Shu sababli korreksion ishlar davomida motivatsion yondashuv, ijobiy emotsional muhit yaratish hamda bemorning kommunikativ ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, efferent afaziyada logopedik reabilitatsiya bosqichma-bosqich, tizimli va kompleks tarzda olib borilgandagina nutq funksiyalarini samarali tiklash hamda bemorning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash mumkin bo'ladi. To'g'ridan to'g'ri usullardan foydalangan holda olib boriladigan logopedik reabilitatsiya (nafaqat yuqori darajada avtomatlashtirilgan nutq qatorlari darajasida, balki mustahkamlangan lug'at va kommunikativ ifoda doirasida ham) nutq nuqsonini bartaraf etish va bemorlarni reabilitatsiya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Miyaning organik mahalliy shikastlanishlarida nutqning o'z-o'zidan tiklanishi kuzatilmaydi va faqat ahamiyatsiz kompensator o'zgarishlar bilan almashinadi, bu esa ko'pincha funksiyaning keyingi tiklanishi uchun salbiy holatni yuzaga keltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амосова Н. Н., Каплина Н. И. Практические упражнения для восстановления речи у больных после инсульта, черепно-мозговой травмы и других заболеваний мозга. – М., 2007. – 144 с.
2. Визель Т. Г. Основы нейропсихологии. – М.: АСТ, 2009.
3. Крупенчук О. И., Воробьева Т. А. Логопедические упражнения: Артикуляционная гимнастика. – Санкт-Петербург: Издательский дом "Литера", 2004. – С. 64.
4. Цветкова Л. С. Афазия и восстановительное обучение. – Москва: Просвещение, 1988. – 207 с.
5. Лапина Н. М. Атипичные афазии: восстановительное обучение на ранней стадии заболевания: методическое пособие для практикующих логопедов. – Москва: Изд-во "Сфера", 2007. – С. 64.
6. G'ulomova S. S., Turdaliyeva Sh. H. Neyroreabilitatsiyasida hissiy buzilishlarga ega bolalar uchun sensor integratsiya usuli // Theoretical Aspects in

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.